# TA'LIM YO'NALISHLARI

**UMUMQO'SHIN FAKULTETI**

MUTAXASSISLIK

TAKTIK QO'MONDONLIGI

- MOTOO'QCHI BO'LINMALARI
- ChEGARA QO'SHINLARI
- QO'SHIN RAZVEDKASI
- ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI QO'SHINLARI
- HARBIY PSIXOLOG
- TARBIYAVIY VA MAFKURAVIY ISHLAR
- FRONT ORTI TA'MINOTI (KIYIM KECHAK TA'MINOTI)
- FRONT ORTI TA'MINOTI (OZIQ-OVQAT TA'MINOTI)
- FRONT ORTI TA'MINOTI (YOQILG'I TA'MINOTI)
- MUHANDISLIK QO'SHINLARI
- RADIATSION, KIMIYOVIY, BIOLOGIK HIMOYA QO'SHINLARI
- ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI TEXNIK QO'RIQLOV VOSITALARI

Bitiruvchilar Qurolli Kuchlarning bo'linmalari va qismlarida quyidagi lavozimlarda xizmat qilishlari ko'zda tutiladi:

- TARBIYAVIY VA MAFKURAVIY ISHLAR BUYICHA KOMANDIR O'RINBOSARLARI
- BATALYONLAR, BRIGADALAR XIZMAT BOSHLIQLARI
- GURUH KOMANDIRLARI



# QABUL QILISH TARTIBI

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasiga abituriyentlarni o‘qishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi taqdim etgan test sinovlari natijalari hamda ajratilgan kvotalar bo‘yicha joylardagi harbiy bo‘linmalar va hududiy huquq-tartibot organlarining ehtiyojlariga asosan amalga oshiriladi.

Akademiyaga qabul qilingan kursantlar 30 kunlik tayyorlov dala mashg‘ulotlari (boshlang‘ich harbiy tayyorgarlikni takomillashtirish va yosh askarning umumqo‘shin tayyorgarligi dasturi asosida mashg‘ulotlar)ga jalb etiladilar, shundan so‘ng tantanali ravishda **“Vatanga qasamyod”** qabul qiladilar.

O‘qish davomida kursantlar **bepul yotoqxona, uch mahal issiq ovqat**, belgilangan norma bo‘yicha **yozgi va qishki harbiy libos hamda pul ta’minoti** bilan ta’minlanadi.

O‘qish davomida kursantlarga har yili **45 kun (15 kun qishki, 30 kun yozgi) ta’til** beriladi.

Dastlabki kontrakt bilim yurtiga o‘qishga qabul qilingan kursantlar bilan **o‘qish muddatiga**, keyinchalik ofitserlik lavozimlarida **5 yil** davomida harbiy xizmatni o‘tash sharti bilan

**ESLATMA !!!**

*Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tadbirlar sababli o‘qishga qabul qilish tartibiga tegishli vazirlik va idoralar tomonidan o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bu haqida joylardagi Mudofaa ishlari bo‘limlari va harbiy qismlarga belgilangan tartibda xabar beriladi.*

**Qurlli Kuchlar Akademiyasida o‘qish Davlat hisobidan moliyalashtiriladi**


O'zbekiston Respublikasi, 100052
Toshkent shahar, Mirzo-Ulug'bek tumani,
Parkent ko'chasi, 21-uy

+9989(71) 289-97-18
info@akad.uz
t.me/akad_uz
facebook.com/akad.uz





# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI

АКАДЕМИЯ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

THE ACADEMY OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN




## Milliy iftixor, burchga sadoqat va jasorat

www.akad.uz



# HUJJATLARNI TAYYORLASH
## VA QABUL QILISH TARTIBI

Akademiyaga 25 yoshgacha bo'lgan ofitser harbiy unvoniga ega bo'lmagan harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majburlar; 17 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan, shu jumladan qabul yili 17 yoshga to'ladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi

## 01 HARBIY-PROFESSIONAL YO'NALTIRISH

1- fevraldan - 10- aprelgacha

- fuqaro yoshlar (talabalar) uchun – mudofaa ishlari bo'limlarida;
- harbiy xizmatchilar uchun – xizmatni o'tash joyida

Hujjatlarni to'plash va o'rganish

Yakka tartibda suhbat

Birlamchi tibbiy ko'rik

> 60 kg  > 170 sm

www.akad.uz

## 02 DASTLABKI SARALAB OLISH

11- apreldan - 31- maygacha

### INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK O'RGANISH

- tavsiya etiladi
- tavsiya etilmaydi

### UMUMJISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASINI BAHOLASH

3km yugurish (min.): <14.30  <13.35

100m yugurish (sek.): <15.4  <15.2

TURNIKDA TORTILISH: Marotaba >7  >10

### YAKUNIY TIBBIY KO'RIK

Nomzodning bilim yurtiga o‘qishga yaroqliligi to‘g‘risida xulosa chiqariladi. Sog‘lig‘ining holatiga ko‘ra bilim yurtiga **“yaroqsiz”** deb topilgan nomzodlar keyingi bosqichga o‘tmaydi.

## 03 TEST SINOVLARI

DTM

1-avgustdan - 15- avgustgacha

Test sinovlari nomzodlar tanlangan hududlarida o‘tkaziladi.

### 1-BLOK
Majburiy fanlar

- Ona tili — 10 savol
- Matematika — 10 savol
- O‘zbekiston Tarixi — 10 savol

30 savol — har bir to‘g‘ri javob 1,1 ball

MAX 189 ball

### 2-BLOK
Ta'lim yo‘nalishiga mos fanlar

- Matematika — 30 savol
- Fizika — 30 savol

60 savol — har bir to‘g‘ri javob: Matematika 3,1 ball; Fizika 2,1 ball

$R = \frac{\rho l}{S}$

### IMTIYOZLAR

**Muddatli harbiy xizmatni** o‘tab tegishli tavsiyanomalarga ega bo‘lgan fuqarolarga
PQ 1765-son 2012-yil 31-may — **50%**

**Fan olimpiadalarining** Respublika bosqichida I, II va III o‘rinlarni egallagan fuqarolarga.
PQ 4306-son 2019-yil 28-may — **Ixtisoslik fani bo'yicha maksimal ball**

**“Vatan tayanchi”** bolalar va o‘smirlar harbiy vatanparvarlik harakatida erishgan yutuqlari uchun to‘plangan umumiy ballariga qo‘shimcha.
PQ 150-son 2022-yil 2-mart — **5%**

**“Temurbeklar maktabi”** HAL bitiruvchilariga.
PQ 4375-son 2019-yil 28-iyun — **30%**

**“Ilg‘or serjant”** nominatsiyasi Respublika turi g‘oliblari — **OHTMga tanlovsiz**

### KVOTALAR

Amaldagi harbiy xizmatchilarning farzandlariga
PQ 3726-son 2018-yil 14-may — **5%**

“Mehribonlik” uyi va bolalar shaharchasi bitiruvchilariga
PQ 4296-son 2019-yil 22-aprel — **1%**

Xizmat majburiyatini bajarishda halok bo‘lgan, yarador bo‘lish natijasida nogiron bo‘lgan harbiy xizmatchi va huquqni muhofaza qilish xodimlarining farzandlariga
PQ 3726-son 2018-yil 14-may — **OHTMga tanlovsiz**

“Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti sohiblariga
PQ 3402-son 2017-yil 21-noyabr — **OHTMga tanlovsiz**

Xalqaro matematika (IMO), fizika (IPhO), kimyo (IShO), biologiya (IBO), informatika (IOI) olimpiadalari g‘oliblari OHTMga qabul komissiyasining qarori bilan OHTMga test sinovlarsiz va qo‘shimcha imtihonsiz o‘qishga qabul qilinadi.

